

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI TARIXIGA NAZAR**Qarshiboyev Adham**

O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14750767>

Annotatsiya. Mazkur maqola Amir Temur va temuriylar davridan ma’lumot beruvchi, shu davrda yashagn tarixnavislarning asarlarida temuriylarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy tarixi yoritilishi haqida muhim ma’lumotlarni berib o’tadi. Shuningdek, tarixnavislarning asarlarida Movaraunnahr siyosiy tarixiga oid bir qancha muhim jihatlarini aks ettirishi bilan muhim sanaladi.

Kalit so`zlar: G’iyosiddin Ali ibn Jamol al - Islom Yazdiy, Rui Gonsales de Klavixo, Nizomiddin Shomiy, Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Fasih Havofiy, Muhammad Tohir manbalar va boshqalar.

A REVIEW OF THE HISTORY OF ORIGINAL STUDY OF THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS

Abstract. This article provides important information about the socio-economic, political, and cultural history of the Timurids in the works of historians living in this period, who provide information about the era of Amir Temur and the Timurids. It is also considered important as it reflects several important aspects of the political history of Movaraunnahr in the works of historians.

Key words: Ghiyasiddin Ali ibn Jamal al-Islam Yazdi, Rui Gonzalez de Clavijo, Nizamiddin Shami, Abdurrahman Jami, Davlatshah Samarkandi, Abdurazzaq Samarkandi, Fasih Hawafi, Muhammad Tahir sources and others.

ОБЗОР ИСТОРИИ ОРИГИНАЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ

Аннотация. В статье приводятся важные сведения об эпохе Амира Темура и Тимуридов, а также освещении социально-экономической, политической и культурной истории Тимуридов в трудах историков, живших в этот период. Это также важно для отражения в трудах историков ряда важных аспектов политической истории Трансоксании.

Ключевые слова: Гиёсиуддин Али ибн Джамаль аль-Ислам Язди, Руи Гонсалес де Клавихо, Низамиддин Шами, Абдурахмон Джами, Давлатшах Самарканди, Абдураззок Самарканди, Фасих Хавафи, источники Мухаммада Тахира и другие.

Amir Temur va Temuriylar davri manbashunosligi haqida ko‘plab asarlar mavjud va keng qamrovli bo‘lib sovet davrida va mustaqillik yillarda o‘zbek tiliga o‘girilib, nashr etilgan tarixiy

asarlar yoritilishi kerak bo'lgan masalalarni ochib berishda asos bo'lib xizmat qildi. Bu manbalar orqali Amir Temur va Temuriylar davrining ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotini chuqur o'rganish imkonini beradi. Temurning shaxsiyati, harbiy qobiliyatları va davlat boshqarish usullari haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun bu manbalar muhim ahamiyatga ega.

Temuriylar davri tarixini o'rganish, shuningdek, O'rta Osiyo tarixining o'ziga xosligini tushunishga yordam beradi.

Ulardan dastlabkisi G'iyyosiddin Ali ibn Jamol al - Islom Yazdiyning "Ro'znomai g'azavoti Hindiston" ("Hindistonga yurish kundaligi")¹ asari bo'lib, u Amir Temurning 1398–1399 yillarda Hindistonga olib borgan yurishlari asosida 1399–1403 yillarda yozilgan. Kitob garchi mubolag'alarga boy bo'lsa ham ma'lumotlarning aniqligi bilan bu davr tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur davriga oid manbalardan biri Nizomiddin Shomiy (1409 yilda vafot etgan) qalamiga mansub "Zafarnoma"² asaridir. U Amir Temurning topshirig'iga asosan 1402–1404 yillarda yozilgan. Nizomiddin Shomiy Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan to 1404 yilga qadar kechgan tarixiy voqealarni sodda va ravon tilda yozgan. Bu kitobga 1404 – 1405 yillardagi voqealar - Amir Temurning vafotiga qadar bo'lgan davr tarixi Hofizi Abro' tomonidan qo'shimcha ilova sifatida kiritilgan va u tugallangan mazmun kasb etgan. Amir Temurning o'ziga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan bu asar, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, uning hayoti, harbiy yurishlari va strategiyalarini tasvirlaydi.

Asar quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Temurning tug'ilishi va yoshlik davri, Temurning bolaligidagi sharoitlar, oilasi va ilk ta'limi qanday bo'lganligi haqida ham ma'lumot beradi. Temurning O'rta Osiyo, Eron va boshqa hududlarga qilgan yurishlari, muhim janglar va ularning natijalarini yoritadi. Davlat boshqaruvi, ittifoqlar va raqobatchilar bilan munosabatlar ham ijobjiy tarzda yoritilgan.

Amir Temur davri tarixini o'rganishda Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура"³ asari katta ahamiyat kasb etadi. Klavixo o'z davrining qudratli davlati sanalgan Ispaniyaning elchisi sifatida 1403–1406 yillarda Movarounnahrga kelgan. Klavixo o'z elchiligi davomida Movarounnahrdan ko'rgan-bilganlari, unga ko'rsatilgan yuksak ehtirom va boshqa taassurotlari haqida ma'lumotlar qoldirgan. Rui Gonsales de Klavixonning "Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура" asari Amir

¹ Гияс ад-Дин Али. Дневник похода Тимура в Индию / Пер. с перс., предисл. и примеч. А.А. Семенова. – М.: Наука, 1958. – 205 с.

² Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўтирувчи Юнусхон Ҳакимжонов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 527 б.

³ Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406) / Пер. со староисп. И.С. Мироковой. – М.: Наука, 1990. – 192 с.

Temur davri tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi⁴. Ushbu asar 1404 yilda yozilgan va Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixonning Temur qo‘smini bilan bo‘lgan sayohati, shuningdek, uning Samarqand shahriga borishi haqida batafsil ma’lumot beradi. Bu manbaning ahamiyati shundaki, Klavixo o‘zining sayohatini, yo‘l xaritasini va o‘tkazgan vaqtini batafsil tasvirlaydi. U o‘z sayohatida uchragan joylar, ularning ahvoli va aholisining turmush tarzi haqida ma’lumotlar keltiradi.

Asar Amir Temur va uning saroyidagi hayotni yoritadi. Klavixo Temurning o‘ziga xos shaxsiyati, uning qo‘mondonlik fazilatlari, davlat boshqaruvi va siyosiy strategiyalari haqida yozadi. Klavixo Temur davridagi ijtimoiy va madaniy hayotni tasvirlaydi. U Temuriylar saroyidagi san’at, me’morchilik, ilm-fan va madaniy tadbirlar haqida ma’lumot beradi.

Samarqand shahrining go‘zalligi, arxitekturasi va madaniy merosi haqida ham e’tibor qaratadi. Klavixo Temurning yurishlari va harbiy strategiyalari haqida ham yozadi. U Temurning raqobatchilari bilan bo‘lgan munosabatlari, urushlar va ularning natijalari haqida ma’lumotlar keltiradi. Samarqandning iqtisodiy ahvoli, savdo yo‘llari va tijorat aloqalari haqida ham ma’lumotlar taqdim etadi. Klavixon Samarqandni o‘zining geografik joylashuvi va iqtisodiy ahamiyati nuqtai nazaridan tasvirlaydi.

Rui Gonsales de Klavixonning “Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура” asari Amir Temur davri tarixini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib, o‘z zamonida va keyinchalik O‘rta Osiyo tarixini tushunishga yordam beradi. Asar orqali tarixiy voqealar, madaniyat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot haqida keng qamrovli tasavvur hosil qilish mumkin.

Klavixonning taassurotlari va tavsiflari, o‘sha davrdagi hayotga nisbatan o‘ziga xos qarashlarni taklif etadi va tarixshunoslarga o‘sha davrni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

“Kundalik” Amir Temur davlatining kuch-qudrati, ichki va tashqi siyosati, rasmiy marosimlar, oilaviy munosabatlari, ilm-fan taraqqiyoti, urf-odatlar, me’morchilik va boshqa milliy an’analar haqida bizga ko’plab qimmatli ma’lumotlarni beradi. Samarqandning iqtisodiy ahvoli, savdo aloqalari va tijorat faoliyati haqida ma’lumotlar berilgan. Klavixonning ta’kidlashicha, Samarqand savdo yo‘llarining kesishgan joyida joylashgani tufayli o‘zining iqtisodiy ahamiyatini oshirgan. Rui Gonsales de Klavixonning “Kundalik” asari, Amir Temur davrini va O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishda juda muhim manba hisoblanadi. Asar orqali o‘sha davrning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti haqida keng qamrovli tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Klavixonning shaxsiy taassurotlari va ta’riflari, tarixiy voqealarni yanada jonlantiradi va tarixshunoslardan uchun qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi.

⁴ Abdullayev I. Movaraunnahr tarixiy manbalari. - T.: Fan, 2002. 270 b

Amir Temur davriga oid yana bir mashhur manba Sharafiddin Ali Yazdiy (1454 yilda vafot etgan) qalamiga mansub “Zafarnoma”⁵ hisoblanadi. Bu asar qahramonlik, yuksak optimistik ruhda yozilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning bu asarida Amir Temur tavallud topgan davrdan to Xalil Sulton davrigacha yuz bergen tarixiy voqealar yoritilgan. Unda ahamiyatga molik ba’zi to’ldirish va qo’shimchalar mavjud. Bu asar Fors hokimi temuriyzoda Ibrohim Sulton rahbarligi va topshirig’i asosida 1425 yilda yozilgan. Ibrohim Sulton bu asarning haqqoni va ishonchli chiqishida unga juda katta yordam bergen. Shuning uchun Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si manbalar orasidagi eng ishonarli va haqqoniysi hisoblanadi. Sharaf al-Din Ali Yazdiy tomonidan yozilgan bu asar Amir Temur va uning avlodlari haqida keng qamrovli ma'lumotlar beradi. Shunigdek, Temuriylar sulolasining tarixi hamda Amir Temurdan keyingi avlodlar, ularning siyosiy faoliyatlari va meroslari haqida o’z ko`zлari bilan ko`rgan voqealar asosida yozgan. Bundan tashqari Temuriylar davridagi ijtimoiy tizim, adolat va qonunlar, jumladan, temuriylar davrida san’at va madaniyatning rivojlanishi, me’morchilik va ilm-fan haqida ham qiziqlari fikrlar yozib qoldirgan⁶.

Ibn Arabshoh-Shihobiddin Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim (1389 - 1450)ning “Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur” (“Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari”)⁷ asari Amir Temur davriga oid muhim manbalardan biri hisoblanadi. 1401 yilda Amir Temur Damashqni zabit etgan vaqtida Ibn Arabshoh 12 yoshda edi. U 1401 yilda asir sifatida Samarqandga keltirilgan, bu erda 1408 yilgacha yashagan va o’z vataniga qaytgach, 1419 yilda Amir Temur davri tarixini yozib qoldirgan. Ibn Arabshoh, Shihobiddin Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim (1389–1450) O’rta Osiyo tarixida muhim shaxs hisoblanadi. Uning “Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur” asari Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan eng muhim tarixiy manbalardan biridir. Ushbu asar, Temurning shaxsiyati, harbiy yurishlari va davlat boshqaruvi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o’z ichiga oladi. “Ajoyib al-maqdur” asari Temurning hayoti va faoliyatini turli bo‘limlarga bo‘lib, batafsil ravishda yoritadi. Asar, Amir Temur shaxsini va uning davrini chuqur tushunish imkonini beradi.

Ibn Arabshoh Temurning tug‘ilishi, o’sish davri, ta’limi va u qanday qilib kuchli qo’mondon bo‘lganini yoritadi. Temurning ota-onasi va oilaviy sharoitlari haqida ham ma'lumotlar mavjud.

⁵ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома (Мовароуннарх воқеалари 1360–1370) / Масъул мухаррир, сўзбоши муаллифи ва нашрга тайёрловчи А.Ўринбоев. Таржимон О.Бўриев. – Тошкент: Камалак, 1994. – 288 б.; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома / Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Ашраф Аҳмад, Хайдарбек Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.

⁶ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.,1991, 213-b

⁷ Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У. Уватов. 2 жилдли. – Тошкент: Мехнат, 1992.

Asarda Temurning harbiy yurishlari, urushlar, janglar va ularning natijalari haqida batafsil tavsiflar keltirilgan. Ibn Arabshoh Temurning strategik fikrlash qobiliyatini, jangovar rejelashtirishini va raqiblariga qarshi qanday taktikalar qo'llaganini ta'kidlaydi. Amir Temur davlat boshqaruvi, siyosiy strategiyalari, ittifoqlar va raqobatchilari bilan munosabatlari haqida ham yozadi. Ibn Arabshoh, Temurning o'z davrida qanday qilib barqarorlik va taraqqiyot o'rnatgani haqida ma'lumot beradi. Asar madaniyat, ilm-fan va san'atning rivojlanishi, shuningdek, Temur davridagi ijtimoiy hayot haqida ham ko'plab ma'lumotlar keltiradi. Ibn Arabshoh Temuriylar saroyining madaniy hayotini, san'at va ilm-fanning rivojlanishini ta'kidlaydi. Ibn Arabshohning asari nafaqat Amir Temur, balki Temuriylar davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. U, shuningdek, o'sha davrdagi boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan munosabatlari, savdo aloqalari va diplomatik faoliyatlar haqida ham ma'lumot beradi⁸.

"Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur" asari Amir Temur va Temuriylar davrini chuqr o'rganish uchun muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Ibn Arabshohning keng qamrovli tasvirlari, o'sha davr tarixini va madaniyatini tushunishda qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Asar, tarixshunoslar, olimlar va o'rganmoqchi bo'lganlar uchun foydali manba bo'lib qoladi⁹.

Bu asar Amir Temurga nisbatan salbiy va dushmanlik munosabatida, manba va dalillarga kam asoslanib, o'zining ichki sub'ektiv tessurot va munosabatlari asnosida yozilgan bo'lsa ham undagi ba'zi ma'lumotlar saltanat tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarixchi Amir Temurni irodasi mustahkam, qattiqqo'l vaadolatli davlat rahbari ekanligi, davlatni qonunlarga asoslangan holda boshqargani, o'zi shohid bo'lgan voqealar haqida qimmatli ma'lumotlar berib o'tgan.

Jumladan, u o'z kitobida: «Temur o'z g'oyibligida mamlakati va raiyasi ishlarida nelar yuz bergenini surishtirib, yeri mulklari masalalarini diqqat bilan o'rgana boshladi va hokimlariga yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi; atrof va chegaralar, tevarak-chetlar foydasi tadbirini ko'rib, kattayu kichikning g'amini eb, boyu faqirning manfaati bilan mashg'ul bo'ldi. O'z mulohazasi taqozasiga ko'ra barcha ash'yolarni o'z o'rniga qo'yib, jami mansabu martabalar jilovini o'shangasazovor kishilar qo'liga tutqaza boshladi. U sayidlarni e'zozlab, karomatlar sohiblari (bo'lgan) avliyolarni izzatu ikromli qildi, ilmu fanni va uning ahllari hurmatini oshirib, ularga muruvvatini sochib, martabalarini ulug'ladi...»¹⁰, – kabi fikr-mulohazalarni ham keltirib o'tgan edi.

⁸ Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У. Уватов. 2 жилдли. – Тошкент: Мехнат, 1992. В. 123

⁹ Abdullayev I. Movaraunnahr tarixiy manbalari. - T.: Fan, 2002. 202.b.

¹⁰ Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур ... 1-жилд. – Б.304.

Amir Temur davri davlatchilik tarixiga oid yana bir eng muhim asar “Temur tuzuklari”dir¹¹. Asl nusxasining topilmaganligi uchun uning yozilish davri sanasi olimlar tomonidan aniqlanmagan bo’lsa-da, ammo unda tavsiflangan tarixiy jarayonlar, voqealarning aksariyati Amir Temur davrida yozilgan boshqa ma’lumotlar bilan mos keladi, unda mavjud ba’zi qimmatli dalil va voqealar boshqa manbalarda uchramaydi.

“Tuzuklar” o’zining siyosiy-falsafiy, ma’naviy-axloqiy mazmunining boyligi bilan mashhur bo’lgan va turli davrlarda ko’plab tillarga tarjima qilingan, davlat boshqaruvida undagi g’oyalardan foydalanilgan. “Tuzuklar” Amir Temur davlatchilik tarixini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi va uning mazmun-mohiyatini alohida mavzularda ochib berish dolzarb masaladir.

Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al-Havofiy – Hofizi Abru (1431 yilda vafot etgan) ham Amir Temur davrining zabardast tarixnavislaridan biri hisoblanadi. U “Majmu’ ai Hofizi Abro”, “Zubdat ut-tavorixi Boysung’uriy” (“Boysung’ur Mirzoning saralangan tarixi”) kabi bir necha asarlar muallifidir. “Zubdat ut-tavorixi Boysung’uriy” asarida olamning yaralishidan to 1426 yilgacha bo’lgan tarixiy voqealar yozilgan. Hofizi Abru o’z davri tarixiy voqealarini shohid sifatida tahlil etadi va uning ma’lumotlari ham milliy davlatchilik tariximizni o’rganishda muhim o’rin tutadi.

Amir Temur davri tarixnavislaridan biri Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muxammad al-Xavofiydir. Uning “Mujmali Fasihiy” (“Fasihiy to’plami”)¹² nomli asari 1441–1442 yillarda yozilgan. Bunda tarixiy voqealar qisqa va lo’nda yilma-yil, davriy ketma-ketlikda berilgan va u ortiqcha mubolag’a, maqtov va sub’ektiv hissiyotlardan holi asar hisoblanadi. U Amir Temur davridagi tarixiy voqealarga aniqliklar kiritishda katta ahamiyat kasb etadi. Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Xavofiy, Amir Temur davrining mashhur tarixnavislaridan biri hisoblanadi. Uning asari "Mujmali Fasihiy" ("Fasihiy to’plami") o’z zamonining tarixini va madaniyatini yoritishdagi ahamiyati bilan tanilgan.

“Mujmali Fasihiy” asari Amir Temur va uning avlodlari davrida, ya’ni XIV – XV asrlarda yozilgan. Asar, asosan, Temuriylar imperiyasining tarixi, siyosiy voqealari va madaniy hayoti haqida ma’lumot beradi. Asarning asosiy maqsadi Amir Temur va uning qo’shinlari, yurtlarini zabitishdagi faoliyatlarini hujjatlashtirish va tarixi haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etishdir. “Mujmali Fasihiy” asari ko’plab bo’limlardan iborat bo’lib, har bir bo’limda alohida tarixiy voqealar va shaxslar haqida hikoya qilinadi¹³.

¹¹ Темур тузуклари / Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. Сўзбоши ва изоҳлар, умумий таҳрир академик Б.Ахмедовники. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996. – 382 б.

¹² Фасих Ахмад ибн Джалаладдин Мухаммад ал-Хавафи. Муджмали Фасихи (Фасихов свод) / Пер. с. перс., комментарии и указатели Д.Ю.Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – 346 с.

¹³ Saidov B. Tarixiy asarlar va ularning o’rnı. - T.: Fan, 2005. 175-bet.

Al-Xavofiy, asarida nafaqat siyosiy voqealarni, balki iqtisodiy va madaniy hayotni ham yoritadi. Al-Xavofiy o'z asarida aniq va ravon til bilan ifoda etadi. U voqealarni tasvirlashda zargarlik va badiiy uslublardan foydalanadi, bu esa asarni o'qish jarayonini qiziqarli qiladi. "Mujmali Fasihiy" asari, o'z zamonidagi tarixiy voqealarni va ijtimoiy-hayotiy holatlarni batafsil yoritgani sababli, tarixchilar va olimlar uchun muhim manba hisoblanadi. Bu asar, Amir Temur imperiyasining rivojlanishi va uning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Fasih Ahmad ibn Jaloliddin al-Xavofiyning "Mujmali Fasihiy" asari, o'z zamonining muhim tarixiy voqealari va shaxslarini yoritish bilan birga, Temuriylar davrining madaniyati va ijtimoiy hayoti haqida ham keng qamrovli ma'lumot beradi. Bu asar tarixiy tadqiqotlar uchun qimmathi manba bo'lib xizmat qiladi va Amir Temur davrining tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Amir Temur davrida bo'lib o'tgan voqealarni yozgan tarixchilardan biri Kamoliddin Abdurrazzoq ibn Mavlono Jaloliddin Ishoq as-Samarqandiy (1413–1483) bo'lib, "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki saodatlari yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi")¹⁴ asari uning tomonidan 1470 yilda yozilgan. Unda Amir Temur, Shohruh Mirzo, Ulug'bek va boshqa temuriy hukmdorlarning ichki va tashqi siyosati, iqtisodiy, ma'naviy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

«Ravzat us-safo» («Musaffolik bog'i») nomli asar muallifi mashhur tarixchi Mirxon (1433–1498) va uning nabirasi G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning (1475–1535) "Habib-us-siyar fi axbor va afroz ul-bashar" ("Inson xabarlari va farzlarida do'stning tarjimai holi")¹⁵ va boshqa asarlari¹⁶ ham Amir Temur davri manbashunosligida alohida o'rin tutadi. Xondamir (1475–1535) o'zining "Habib-us-siyar fi axbor va afroz ul-bashar" asari bilan o'z zamonining muhim tarixchilardan biri sifatida tanilgan. Ushbu asar Temuriylar va keyinchalik Shayboniylar davrining tarixiy voqealarini yoritadi. Xondamirning asari XVI asr boshlarida, o'z zamonining siyosiy va ijtimoiy voqealari fonida yozilgan. Asarning asosiy maqsadi insoniyat tarixini, jumladan, shaxsiy hayot, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tasvirlashdir. U o'z asarida tarixiy shaxslarning hayotini va faoliyatini yoritishga alohida e'tibor beradi.

"Habib-us-siyar" asari bir necha bo'limlardan iborat bo'lib, har bir bo'limda tarixiy voqealar, shaxslar va ijtimoiy hayot haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

¹⁴ Абдурраззок Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс–тожик тилидан таржима, кириш сўз, изоҳ ва лугатлар А. Ўринбоевники. – Тошкент: Фан, 1969. Т. 2. I-кисм. – 463 б.

¹⁵ Хондамир. Хабиб ас-сиyr. ЎзР ФА Шарқшунослик институтининг тошбосмалар жамгармаси. Инв. № 8979.

¹⁶ Хондамир. Дастур ул вузаро. ЎзР ФА Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фонди. Инв. № 55/1; Ўша муаллиф. Номайи номий. ЎзР ФА Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фонди. Инв. № 801 ва бошқалар.

⁵⁰ Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўstonи / Форс тилидан Б. Аҳмедов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – 86 б.

Asar, shuningdek, o'z ichiga biografiyalarni, tarixiy voqealar va hikoyalarni oladi.

Xondamir o'z asarida aniq, ravon va bayon etuvchi uslubni tanlagan. U o'z zamonidagi voqealarni badiiy tarzda ifodalagan, bu esa asarni o'qish uchun qiziqarli qiladi. Asarda ko'plab misollar, hikoyalar va afsonalar mavjud. "Habib-us-siyar" asari, o'z zamonidagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Xondamir, o'z asarida Temuriylar va Shayboniylar davrining murakkab tarixini o'zining ma'lumotlari bilan boyitadi. Xondamirning "Habib-us-siyar fi axbor va afroz ul-bashar" asari, o'z davrining tarixiy voqealarini va shaxslarini qamrab olgan muhim manba bo'lib, tarixchilar va olimlar uchun qimmatli resurs hisoblanadi.

Ushbu asar, o'z zamonining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini chuqur o'rganishga yordam beradi va tarixiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu asar 1524 yilda yozib tamomlangan bo'lsa ham qo'shimchalar kiritilishi natijasida u 1529 yilda oxiriga etkazilgan¹⁷.

Amir Temur va temuriylar davrida Davlatshoh Samarcandiy (1435-1495), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)¹⁸ kabi ko'plab davlat arboblari, sayyoҳ tarixnavislarning asarlari yaratilgan bo'lib, ularni barchasiga batafsil to'xtalish imkoniyati bo'lmasa-da, tadqiqot jarayonida ulardan keng foydalanishga harakat qilindi.

Tahlillar natijasida Amir Temur tarixiga tegishli manbalarda o'xshash ma'lumotlar uchragani bilan, ular bir-biridan davrida, sifatida, yozilish uslubi, dalillarning boyligi va boshqa jihatlarida farqlar mavjudligi seziladi. Ularning barchasi ham o'ziga xosligi va qimmati bilan ajralib turadi.

REFERENCES

1. Гияс ад-Дин Али. Дневник похода Тимура в Индию / Пер. с перс., предисл. и примеч. А.А. Семенова. – М.: Наука, 1958.
2. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Юнусхон Ҳакимжонов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
3. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406) / Пер. со староисп. И.С. Мироковой. – М.: Наука, 1990
4. Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У. Уватов. 2 жилдли. – Тошкент: Мехнат, 1992
5. Sharafuddin Ali Yazdi. Zafarnoma. - T.: Uzbekistan, 1996. 234 b

¹⁷ Saidov B. Tarixiy asarlar va ularning o'rni. - T.: Fan, 2005. 156-bet.

¹⁸ Бобур Захириддин Мухаммад. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T., 2007, 432

6. Темур тузуклари / Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. Сўзбоши ва изоҳлар, умумий таҳрир академик Б.Аҳмедовники. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996
7. Ahmadov B. Tarix saboqlari. - T.: Fan, 1998. 405 b
8. Beruniy, A. Asar. - T.: Sharq, 2000. 312 b
9. Abdulaziz ibn Muhammad ibn Tahir. Timur va uning davri. - T.: Fan, 2000. 250-bet.
10. Nizomiddin Shomiy. Nasriddin tarixida. - T.: Adabiyot, 2005. 450 b
11. Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnoma. - T.: Uzbekistan, 1997. 250 b
12. Tohir M. Temuriylar davri va uning merosi. - T.: Fan, 2003. 300 b
13. Fitrat, A. Temuriylar tarixiga bag‘ishlangan maqolalar. - T.: O‘zbekiston, 2001. 200 b
14. Mahmud Koshg‘ariy. Divonu lug'otit-turk. - T.: O‘zbekiston, 1995. 480 b